

IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF DISTANCE EDUCATION

Umarova Gulshod Abdujabbarovna
Senior Lecturer of Gulistan State University
g.umarova.gdu@gmail.com

ANNOTATION

The article describes the use of distance learning to form the knowledge and skills of students in the educational process, ways to improve distance learning in higher education, the advantages of computer-based learning programs.

Keywords: Distance education, telecommunications, quality of education, information technology, e-textbook, standard, modern pedagogical technologies.

INTRODUCTION

Mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng, O'zbekiston hayotning barcha jabhalarida bo'lgani kabi, ta'lim tizimida ham muhim islohotlarni amalga oshirdi, xususan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish, ta'limni kompyuterlashtirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi paytda ta'limga axborot kommunikatsion texnologiyalarini jadal tatbiq etish, ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish yetakchi pedagogik-uslubiy g'oyaga aylangan. Oliy ta'lim tizimida ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega bo'lgan, yuksak malakali, yangi texnika va texnologiyalarga tez moslanishga layoqatli, kelajakda kasbiy va hayotiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan kadrlarni tayyorlashda ta'lim jarayonida fanlar bo'yicha zamonaviy o'qitish metodlarini yaratish va ular bilan fan manbalarini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda butun dunyoda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ishlar tobora jadallashib bormoqda. Negaki, jamiyat rivoji va istiqboli ko'p jihatdan kadrlarga bog'liq ekan, albatta bunda ta'lim asosiy rol o'ynashini e'tiborga olish lozimligini anglashga intilish tendensiyasi kuchaydi. Shu jihatdan olib qaralganda ta'lim sifati va natijadorligiga erishish muhim hisoblanadi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatini anglash uchun aynan shu nuqtai nazardan yondashgan holda kognitiv tahlil etish maqsadga muvofiq.

MAIN PART

Hozirgi kunda jamiyatni rivojlanishining zamonaviy bosqichi fan, texnika va texnologiyani rivojlanishining innovatsion modellariga o'tish bilan xarakterlanadi. Bunda esa kompyuter, axborot va telekommunikatsion texnologiyalar katta mavqyega va ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday sharoitda ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish, unda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muammosi muhim va dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Haqiqatan ham, bugungi kunda har tomonlama rivojlanayotgan jamiyat taraqqiyotini axborot texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Axborot texnologiyalari kun sayin jadal sur'atlarda rivojlanib borayotganligi sababli ham ulardan ijtimoiy hayotning barcha sohasida foydalanish davrimizning bugungi kun masalasi bo'lib bormoqda. Ta'lim muassasalarida ham yetuk kadrlar tayyorlashdek ma'suliyatli vazifalarini amalga oshirishda axborot texnologiyalardan keng va samarali foydalanish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Bunga esa esa ta'lim muassasalarining barcha bo'limlarini texnik jihatdan ta'minlash, Internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatlarini to'la yaratib berish orqaligini samarali natijaga erishish mumkin.

O'quv jarayonida o'qitish texnologiyalaridan masofadan o'qitish tizimidvan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Internet tarmog'idan masofali ta'limni amaliyotga tatbiq etishda foydalanish bir vaqtning o'zida an'anaviy hamda masofali ta'lim muhitini yaratadi, bu esa o'z o'rnida an'anaviy ta'lim tizimini sifatini oshiradi, chunki u ta'lim tizimida o'zining raqobatbardoshligini ta'minlashga intiladi va ta'limning umumiy darajasini oshiradi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilning 8 oktabrida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlashtirish to'g'risida"gi farmonida belgilangan ustuvor vazifalarning mohiyatini tahlil etadigan bo'lsak, bunda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish asosiy maqsad sifatida belgilanganligini inobat olish lozim.

Hozirda dunyo shunchalik tez rivojlanmoqdaki, bugungi yangilik ertaga eshik qolyapti. Shuning uchun, ma'lumotlarni o'z vaqtida olish maqsadida, odamzot informatsion texnologiyalarni yaratdi. Kompyuter — bu oddiy va qulay tarzda ma'lumotlarga yetishish vositasidir. Ma'lumotlar bilan ishlayotgan shaxs, ma'lumotlarning qayerda joylashishidan qat'iy nazar, xoh u shaharda, xoh jahonning boshqa nuqtasi bo'lsin, uni olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Hozirda shu va shunga o'xshash boshqa muammolar kompyuterlar yordamida bartaraf qilinmoqda. Kompyuterlar inson hayotining barcha jabhalariga jadallik bilan kirib boryapti va jahonda ularning soni va qo'llanilish doirasi kengaygandan kengaymoqda. Bu esa kompyuterlarning kundankunga yanada rivojlanishini ta'minlayapti. Bularning hammasi ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Hozirda puxta bilimga ega bo'lish uchun informatsion texnologiyalarni ham o'zgartirish zaruriyati tug'ilmoqda, chunki ta'lim tizimi har doim zamon talablariga mos kelishi kerak. Hozirgi zamon talabi esa yangi o'quv muhiti, ya'ni yangi informatsion texnologiyalar yordamida ixtiyoriy joyda turib bilim olish, ixtiyoriy o'quv yurtlari bilan aloqa qilish va jahonning ixtiyoriy nuqtasidagi ma'lumotlarni olishdir. Bunda bizga internet tizimi yordam berishi mumkin. Mamlakatimiz ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y berayotganligi kun sayin yaqqol ko'rinib bormoqda.

Hozirgi kunda tayyorlanayotgan mutaxassislarining axborot hamda kommunikatsiya tarmoqlari bo'yicha ma'lumotlari shu fanlarda o'qitilayotgan an'anaviy bo'limlar bilan chegaralanib qolmasligi zarur. Hozirgi zamon ziyoli kishisidan o'quv multimedia ilovalarini hayotga keng tatbiq etish bo'yicha zarur bilimlarga ega bo'lishi, birinchi galda esa multimedia vositalari va ularning imkoniyatlari haqida bilimlarga ega bo'lishi va ulardan hayotda amaliy foydalanish hamda hal qilinayotgan masalaning zarur yechimini olishni talab etiladi. Bugungi kunda o'quv multimedia ilovalariga bo'lgan qiziqish keskin ortib bormoqda. Kompyuter texnikasining oxirgi paytlarda rivojlanib borishi ularning o'quv multimedia ilovalarini amalda tatbig'iga keng istiqbol yaratdi.

Hozirgi kunda multimediyaviy vositalaridan foydalangan masofaviy ta'limni tashkil qilish, o'rganuvchilarning mustaqil fikrlashlari va bilim olishlari sifatini yaxshilaydi. Rivojlangan davlatlarda ta'lim tizimining rivojlanib borishi tahlilidan shuni ko'rish mumkinki, zamonaviy axborot va telekommunikatsion texnologiyalarning rivojlanib borishi bilan bir qatorda masofaviy o'qitish modeli ham shakllanib bormoqda.

Masofadan o'qitish – bu o'qitishning progressiv metodlari va texnologiyalari bo'lib, yangi o'quv metodologiyasiga va kolekeyutar, telekommunikasiya bu asosida asoslangan bo'lib, o'qitishning barcha formalari sifatli uzluksizligi va samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Masofaviy ta'lim – o'qitishning yangi shakli bo'lib, u o'qitishning ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holdagi ko'rinishlaridan farq qiladi. U ta'limning yangi shakllari, metodlari, vositalari, tashkil etilishi, pedagog va talaba o'rtasidagi hamda talabalarning o'zaro muloqoti shakllarini nazarda tutadi. Shuningdek, bunday ta'limning o'ziga xos turli shakllari, ijtimoiy buyurtma bilan asoslangan o'z maqsadiga, tanlangan ta'lim muassasasining o'quv dasturlarida belgilangan mazmun hamda o'qitish metodlarining tashkiliy shakli va maxsus vositalariga ega bo'ladi

Masofaviy ta'lim kompyuter kommunikasiyasi orqali tashkil etilganda yuqoridagi talablar asosida o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi tashkil etuvchisi, ularda qo'llaniladigan texnologik jarayonlar bilan jihozlangan kompyuter kommunikasiyasi, kompakt disklar, shuningdek keys texnologiyasi kabi vositalarga asoslangan bo'ladi.

Ta'lim muammolari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar masofaviy ta'limni XXI asrdagi ta'limning asosiy shakllaridan biri deb hisoblamodalar. Shuning uchun masofaviy ta'lim hozirgi paytda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash hamda insonlarning bilim olishga nisbatan ehtiyojlarini qondirishning samarali tizimiga aylanib bormoqda.

Masofaviy o'qitishning asosiy shakllaridan biri axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'lib, u dasturlangan ta'lim g'oyasini rivojlantiradi, ta'lim texnologik variantarining hali o'rganilmagan yangi qirralarini ochadi. Axborot texnologiyalari – bu o'quvchiga axborotni tayyorlash va uzatish jarayoni bo'lib, uning vositasi kompyuter hisoblanadi.

Axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha jamiyatimizning tez sur'atlar bilan o'sib boruvchi ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda oliy o'quv yurtlarida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda elektron qo'llanmalar, virtual stendlar, masofaviy o'qitish hamda internet imkoniyatlaridan foydalanishning nazariy, amaliy, metodik jihatdan takomillashtirish muammolari dolzarbdir.

Oliy ta'lim muassasalarida bugungi kunda kompyuterli o'qitish dasturlarining bir turi hisoblanadigan elektron darsliklarga nisbatan qiziqish katta. Xususan, elektrondarslik – oddiyraqamlarvamatnlarbilanifodalangandarsliklardanfarqliravishda, fangategishlimavzularnidinamikravishda, kishiningdiqqatinijalbetuvchiturliranglardan, multimedia, ya'niaudiovavideoanimatsiyalaridano'rinlifoydalanib, tavsiyaetuvchidarslikhisoblanadi.

Elektrondarslikpedagogiktexnologiyalarningichidaalohidao'rinegallaganbo'lib, uning'anaviydarsliklarga nisbatanbirqatorafzalliklarimavjud: qisqavaqtdako'pma'lumotberish, talabalarining'zlashtirishsamaradorligiyuqoribo'lishinita'minlaydi. Elektron darslikda talaba bir vaqtning o'zida ham eshitadi, ham ko'radi. Ma'lum bo'lishicha, "Pedagog, psixologlarning fikrlariga ko'ra, inson eshitganda 5-10% ni eslab qolsa, ko'rish orqali 10-15%i ni eslab qolar ekan. Agar bir vaqtning o'zida ham eshitib, ham ko'rsa, amalda bajarishda 50%dan ortiq ma'lumotni eslab qolar ekan". Elektron darslik aynan mana shu imkoniyatni yaratib beradi.

Masofaviy ta'lim — bu istalgan joydan turib, qaysi vaqt bo'lishidan qat'iy nazar, shaxsiy re'ja asosida o'qish hamda bilim olish jarayonidir. Masofaviy ta'limning asosiy maqsadi - tinglovchilarning qayerda yashashidan qat'iy nazar, jahondagi ixtiyoriy ta'lim muassasasida o'qish imkoniyatini yaratish, ta'lim muassasalaridagi professor – o'qituvchilarning salohiyatlaridan foydalangan holda, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning uzluksiz ta'lim olishlarini ta'minlash va ta'limning turli shakllarini bir – biriga yaqinlashtirishdan iborat . Hammamizga ma'lumki hozirgi kunda butun dunyoda masofaviy ta'lim bo'yicha tahsil olayotgan talabalar soni ko'payib bormoqda.

Turli ta'lim shakllari qatori ayniqsa, masofadan o'qitish keng qo'llanilayotganligi ham quvonchli hol. Ushbu uslubning ko'plab afzallik tomonlari borligi ko'pchilikka ayon. Barcha oliy o'quv yurtlarida masofadan o'qitish texnika va texnologiyasini amalga oshirish borasida qator ishlar olib borilmoqda. Axborot texnologiyalarini rivojlanishi masofadan o'qitishni tashkil etishda yangicha yondashuvni taqozo etadi. Masofadan o'qitishni tashkil etishni hozirgi zamon modellarining asosida kommunikatsiya va tarmoq texnologiyalari yotadi. Ushbu texnologiyalar axborotdan foydalanuvchilarga keng qamrovli yo'l ochib berish bilan birga ularni muhofaza etish muammosini keltirib chiqaradi.

Hozirgi vaqtda respublikamizda yosh avlodni tarbiyalash, o'qitish, bilim berish, zamonaviy axborot texnologiyalarga yaqindan yondashish hamda yangi texnika va texnologiyalar bilan ishlashni o'rgatish maqsadida juda ko'p ijobiy ishlar amalga oshirilib bormoqda . Ularning asosiysi, masofadan o'qitish texnika va texnologiyasidir.Hozirgi axborot texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan davrda masofaviy o'qitish katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ta'limning bu turi shu paytgacha mavjud bo'lgan ta'lim turlaridan o'zining ayrim ijodiy tamonlari bilan ajralib turadi.

CONCLUSION

Xulosa qilib aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda qo'llash natijasida bo'lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy tayyorgarlik sifatini yaxshilashga xizmat qiladi, o'quv mashg'ulotlarining samaradorligi va pedagoglar mehnatining foydali ish koeffitsientini oshiradi, ta'lim jarayonini axborotlashtirish shaxsning intellektual va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi, jamiyatning har bir a'zosini o'z malakasini oshirish va faoliyat sohasini o'zgartira olishi, tezkor ta'lim uchun shart-sharoit yaratish, masofaviy ta'lim samarasini oshirish imkonini beradi.

REFERENCES

1. Avliyoqulov X.N, Musayeva M. Pedagogik texnologiya. Darslik –Tafakkur-bo'stoni T.: 2012. 79-b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/19/5847/3887-son) www.lex.uz